



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**APPARAT VA DASTURIY TA'MINOT
MUTAXASSISLARI**



“Apparat va dasturiy ta’minot mutaxassislari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Apparat va dasturiy ta'minot mutaxassislari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0066



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Dasturiy ta'minotni sinash bo'yicha mutaxassis", "Kompyuter apparat ta'minoti ishlab chiquvchi muhandisi", "Kompyuter tizimi muhandisi" va "Dasturiy ta'minot tekshiruvchisi", "Kompyuter tarmoqlari va tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik" kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

API (Programming Interface – Dasturiy interfeys) – dasturiy mahsulotlar o'zaro integratsiyasi uchun interfeys;

bug (xato) – dasturiy ta'minotda aniqlangan nosozlik;

business analysis (biznes tahlil) – foydalanuvchi talablarini tahlil qilish jarayoni;

bug tracking system (xato kuzatish tizimi) – xatolarni qayd etish va nazorat qilish tizimi (Jira, Bugzilla);

dastur – kompyuterda muayyan vazifani bajarish uchun yozilgan buyruqlar yoki kodlar to'plami. Bu dastur kompyuterga qanday ish qilishni ko'rsatadi;

dasturiy ta'minot – kompyuterda ishlatiladigan barcha dasturlar majmuasi. Bu tizim dasturlari (masalan, operatsion tizim), amaliy dasturlar (masalan, Word, Excel) va boshqa dasturlardan iborat bo'lishi mumkin;

dasturni sinash – Programmaning ishlashini tekshirib ko'rish;

DevOps (Development and Operations – Ishlab chiqish va ekspluatatsiya jarayoni integratsiyasi) – dastur yaratish va ishga tushirish jarayonini avtomatlashtirish usuli;

diagnostics (diagnostika) – uskunalardagi nosozliklarni tekshirish va aniqlash jarayoni;

firewall (fayervoll) – tarmoqni tashqi tahdidlardan himoya qiladigan dasturiy/apparat vosita;

framework (freymvork) – avtomatlashtirilgan testlarni yozish va yuritish uchun arxitekturali asos;

hardware (apparat ta'minot) – kompyuterning fizik qismlari (protessor, xotira, disk va h.k.);

Information Security (axborot xavfsizligi) – ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash;

ITSM (IT Service Management – axborot texnologiyalari xizmatlarini boshqarish)-IT xizmatlarni samarali tashkil qilish va boshqarish tizimi;

kompyuter tizimi – kompyuterning apparat (jismoniy qismlari) va dasturiy ta'minot (programmalar) qismlarining birgalikda ishlashidan tashkil topgan murakkab tizim. Bu tizim ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va natijalarni chiqarish vazifalarini bajaradi;

muhandis – muammolarni texnik yechimlar orqali hal qiluvchi mutaxassis. Kompyuter sohasidagi muhandislar dasturlar yaratish, tizimlarni qurish va texnik muammolarni hal etish bilan shug'ullanadi;

monitoring tools (monitoring vositalari) – server va tarmoq holatini kuzatish dasturlari (Zabbix, Nagios, Grafana);

operating system – OS (operatsion tizim) – kompyuter resurslarini boshqaruvchi dasturiy ta'minot (Windows, Linux);

pipeline (ish jarayoni quvuri) – avtomatlashtirilgan bosqichlar ketma-ketligi (build → test → deploy);

regression testing (regressiya testlari) – yangi o'zgarishlardan keyin oldingi funksional ishlashini tekshirish;

requirement engineering (talablar injeneriyasi) – dasturiy ta'minot talablarini yig'ish va rasmiylashtirish jarayoni;

sinash – tekshirib ko'rish, tajriba qilish, biror narsa yoki kimnidir imkoniyatini, salohiyatini, chidamini yoki to'g'ri ishlashini aniqlash maqsadida tekshirish jarayoni;

SysML (Systems Modeling Language – Tizimlarni modellashtirish tili) – kompleks avtomatlashtirilgan tizimlarni modellashtirish tili;

server infrastructure (server infratuzilmasi) – serverlar va tarmoq uskunalari majmuasi;

service Desk (xizmat ko'rsatish tizimi) – foydalanuvchilarning texnik muammolarini qabul qilish va hal qilish uchun tizim;

service log (xizmat jurnali) – ta'mirlash va qo'llab – quvvatlash ishlarini qayd etish hujjati;

tekshiruvchi – dasturiy ta'minotni sinab ko'radigan, uning ishlashdagi xatolarini aniqlab, ularni tuzatish uchun taklif beradigan mutaxassis. U dasturning ishonchli, aniq va mukammal ishlashini ta'minlaydi;

texnik – kompyuter, uskunalar va dasturlar bilan bog'liq muammolarni joyida hal qiluvchi amaliyotchi mutaxassis. U texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va moslashtirish ishlari bilan shug'ullanadi;

test case (test keys) – dasturiy ta'minot funksiyasini tekshirish uchun tayyorlangan ssenariy;

test report (test hisoboti) – sinov natijalari to'g'risidagi hujjat;

troubleshooting (tezkor nosozliklarni bartaraf etish) – texnik muammolarni tahlil va hal qilish jarayoni;

test scenario (sinov ssenariysi) – dasturiy ta’minot talablari asosida tayyorlangan tekshirish jarayoni;

UML (Unified Modeling Language – Unifikatsiyalashtirilgan modellashtirish tili) – dasturiy ta’minot va tizim arxitekturasini diagrammalar orqali tasvirlash usuli;

virtualization (virtualizatsiya) – server yoki tizim resurslarini virtual muhitda ishlatish texnologiyasi;

CI/CD (Continuous Integration/Continuous Deployment – uzluksiz integratsiya va joriy qilish) – dasturiy ta’minotni sinovdan o’tkazish va ishga tushirish jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (IFUT-2.1);

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 13-yanvarda 3414-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2022-yil 26-dekabrdagi 238-mh-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining 2024-yil 15-oktabrdagi “Axborot tizimlari va resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy hamda dasturiy vositalarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 114-son buyrug‘i.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Apparat va dasturiy ta'minot mutaxassislari	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Dasturiy ta'minotni sinash bo'yicha mutaxassis faoliyatining asosiy maqsadi – dasturiy ta'minot sifatini ta'minlash, ya'ni mahsulot ishonchli, xato va nosozliklarsiz, talablarga to'liq javob beradigan holda ishlashini kafolatlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	K seksiyasi-Aloqa, kompyuter dasturlashtirish, konsalting, hisoblash infratuzilmasi va boshqa axborot xizmatlar sohasidagi faoliyat; 62-Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar; 62.1-Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat; 62.10-Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat; 62.10.0. Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Kompyuter tizimlari, server va ish stansiyalarini loyihalash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, tarmoq infrastrukturasi sozlash, konfiguratsiya va xavfsizligini ta'minlash, dasturiy ta'minotni yaratish, sinash, yangilash va sifatini nazorat qilish, tizim va dasturiy mahsulotlarning ishlashini nazorat qilish va texnik muammolarni bartaraf etish, axborot xavfsizligi, foydalanuvchi kirish huquqlari va tahdidlardan himoya choralarini amalga oshirish.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		35130004 — Kompyuter tarmoqlari va tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik	5
		25190004 — Dasturiy ta'minotni sinash bo'yicha mutaxassis	6
		21522002 — Kompyuter apparat ta'minoti ishlab chiquvchi muhandisi	6
		21522004 - Kompyuter tizimi muhandisi	6
		25120 — Dasturiy ta'minot tekshiruvchisi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	35130004- Kompyuter tarmoqlari va tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik	A1.5	Lokal tarmoqlar va tarmoq uskunalarining ishlashini ta'minlash	A1.01.5	Tarmoq qurilmalarini o'rnatish, ulash va ishga tushirishni amalga oshirish
				A1.02.5	Tarmoq kabellari va ulanishlarini tekshirish hamda nosozliklarni bartaraf etish
				A1.03.5	Tarmoq konfiguratsiyasi (VLAN, IP-manzillash va boshqalar)ni talablar asosida sozlab, barqaror ishlashini ta'minlash
		A2.5	Kompyuter tizimlari va server infratuzilmasiga texnik xizmat ko'rsatish	A2.01.5	Ish stansiyalari, periferik qurilmalar va serverlarning dasturiy-apparat ish faoliyatini tekshirish va sozlash
				A2.02.5	Operatsion tizimlar, drayverlar va server xizmatlarini o'rnatish, yangilash va ishlashini nazorat qilish
				A2.03.5	Kompyuter tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish
		A3.5	Tarmoq xavfsizligi va axborot muhofazasini ta'minlash	A3.01.5	Tarmoq kirish huquqlarini boshqarish va ruxsat darajalarini nazorat qilish
				A3.02.5	Antivirus va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish, yangilash va monitoring qilish
				A3.03.5	Tarmoqdagi xavfsizlik xatoliklari, kirish urinishlari va tahdidlarni aniqlab, choralar ko'rish
2.	25190004 — Dasturiy ta'minotni sinash bo'yicha mutaxassis	B1.6	Dasturiy mahsulotlarni kompleks sinash va baholash	B1.01.6	Dasturiy ta'minot talablariga asoslangan holda test ssenariylari tuzish
				B1.02.6	Ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotning barcha funksional imkoniyatlarini tekshirish
		B2.6	Aniqlangan xato va nuqsonlarni tahlil qilish	B2.01.6	Xatolarni aniqlash, qayd etish
				B2.02.6	Sinov natijalari bo'yicha mantiqiy hisobotlarni tayyorlash

3.	21522002- Kompyuter apparat ta'minoti ishlab chiquvchi muhandisi	D1.6	Kompyuter apparat va apparat-dasturiy tizimlarni loyihalash va ishlab chiqish	D1.01.6	Kompyuter tizimi tuzilmasi va arxitekturasini yaratish
				D1.02.6	Apparat va dasturiy ta'minot o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash
				D1.03.6	Kompleks avtomatlashtirish yechimlarini joriy qilish
		D2.6	Kompyuter apparat tizimlarining ishlashini ta'minlash, sinash va optimallashtirish	D2.01.6	Ishlab chiqilgan tizimni sinovdan o'tkazish va texnik hujjatlash
				D2.02.6	Foydalanuvchi talablarini tahlil qilish va optimal yechimlar taklif etish
4.	21522004 - Kompyuter tizimini (sistemi) muhandisi	E1.6	Kompyuter tizimlari va tarmoq-server infratuzilmasini loyihalash va joriy etish	E1.01.6	Kompyuter tarmoqlari va server infratuzilmasini yaratish va qo'llab-quvvatlash
				E1.02.6	Apparat va dasturiy ta'minot o'rtasidagi muvofiqlikni nazorat qilish
		E2.6	Kompyuter tizimlarining ishlashini ta'minlash, optimallashtirish va axborot xavfsizligini boshqarish	E2.01.6	Sistema resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash
				E2.02.6	Sistemani optimallashtirish va texnik muammolarni hal qilish
				E2.03.6	Xavfsizlik siyosati va ma'lumotlarni himoyalash choralarini ishlab chiqish
5.	25120 - Dasturiy ta'minot tekshiruvchi	F1.6	Dasturiy ta'minotni rejalashtirilgan va kompleks sinovdan o'tkazish	F1.01.6	Test keyslar tuzish va funksional testlar o'tkazish
				F1.02.6	Talablar asosida sinov ssenariylarini ishlab chiqish
				F1.03.6	Avtomatlashtirilgan test muhitini yaratish
		F2.6	Xatolarni aniqlash, tahlil qilish va dasturiy mahsulot sifatini nazorat qilish	F2.01.6	Aniqlangan xatolarni qayd etish va tahlil qilish
				F2.02.6	Hisobotlar tayyorlash va sifat bo'yicha tahlil yuritish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Kompyuter tarmoqlari va tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik
Mashg'ulot nomining kodi	35130
TMR bo'yicha malaka darajasi	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	6 oy amaliy tajribadan o'tgan bo'lishi zarur
Mehnatga layoqati va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lish. Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlash olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	O'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar
	6	Tarmoq muhandislari va administratorlar
	6	Axborot xavfsizligi mutaxassisleri
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.6 — Lokal tarmoqlar va tarmoq uskunalarining ishlashini ta'minlash	A1.01.5 — Tarmoq qurilmalarini o'rnatish, ulash va ishga tushirishni amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tarmoq qurilmasining o'rnatilishi uchun joy va ulanish talablarini aniqlash
		2. Qurilmani elektr manbai va tarmoq portlariga to'g'ri ulash
		3. Boshlang'ich konfiguratsiya (IP-manzil, portlar, VLAN va boshqalar)ni kiritish
		4. Uskuna ishga tushirilgandan so'ng uning indikatorlari va statusini tekshirish
		5. Tarmoqqa ulanish sifatini sinash va qurilmaning barqaror ishlashini tasdiqlash
		6. O'rnatilgan qurilma haqida qaydlar kiritish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Tarmoq qurilmalarini to'g'ri ulash, portlarni aniqlash va elektr manbai bilan xavfsiz ishlash
		IP-manzillarni berish, VLAN sozlash va qurilma interfeyslarini konfiguratsiya qilish
		Tarmoq ulanish sifatini test qilish (ping, traceroute, port tekshiruvi)
		Boshlang'ich konfiguratsiya oynalaridan (CLI, Web-interface) foydalanish
		Nosoz ulanishlarni tezkor aniqlash va bartaraf etish
		O'rnatilgan qurilmalarni hujjatlashtirish va texnik qaydlarni yuritish
		Bilimlar:
		Tarmoq qurilmalarining turlari va ularning texnik xususiyatlari (switch, router, access point va boshqalar)
		TCP/IP protokollari va IP-manzillash asoslari
		VLAN, DHCP, DNS kabi asosiy tarmoq xizmatlari va ularning vazifalari
		Ulanish standartlari va kabel turlari (UTP/STP, RJ-45, optik tolali kabel)
Tarmoq qurilmalarining xavfsizlik talablari va boshlang'ich konfiguratsiya prinsiplari		
Elektr xavfsizligi qoidalari va tarmoq uskunalarini montaj qilish bo'yicha me'yorlar		

A1.02.5- Tarmoq kabellari va ulanishlarini tekshirish hamda nosozliklarni bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
	1. Tarmoq kabellari va ulanishlarning tashqi holatini ko'zdan kechirish va shikastlanish belgilari mavjudligini aniqlash
	2. Kabel tester, multimetr yoki sertifikatlash moslamalari yordamida kabelning uzilishi, qisqa tutashuvi yoki signal yo'qolishini tekshirish
	3. RJ-45 ulagichlari sifati va mahkamligini tekshirish, kerak bo'lsa qayta krimpovka qilish
	4. Tarmoq portlarining ishlashini test qilish va nafaol portlarni aniqlash
	5. Aniqlangan nosozlik sababini (kabel, ulagich, port yoki konfiguratsiya xatosi) diagnostika qilish
	6. Nosoz kabel bo'lagini almashtirish yoki qayta montaj qilish orqali ulanishni tiklash
	7. Bajarilgan ta'mirlash ishlari bo'yicha qaydlar kiritish va holatni hujjatlashtirish
	Ko'nikmalar:
	Kabel va ulagichlarni to'g'ri ulash, krimpovka qilish va test qilish
	Kabel uzilishi, qisqa tutashuv yoki noto'g'ri ulanayotgan juftliklarni aniqlash
	Nosoz portni, kabel bo'lagini yoki ulagichni farqlash uchun bosqichma-bosqich diagnostika qilish
	Kabel test natijalarini to'g'ri talqin qilish va xatolik sababini aniqlash
	Shikastlangan kabel bo'laklarini almashtirish va qayta montaj qilish
	Tarmoq ulanishini tiklash bo'yicha amaliy choralarni tezkor qo'llash
	Ko'rilgan chora-tadbirlar haqida hujjatlashtirish va qaydlar yuritish
	Bilimlar:
	Tarmoq kabellari turlari va ularning qo'llanilish sohasi
	Kabel ulanish standartlari va RJ-45 ulagich konstruksiyasi
	Signal uzatish prinsiplari va kabeldagi yo'qotilish sabablari
	Tarmoq portlarining ishlash prinsipi va ulanish holatlari
	Diagnostika vositalaridan foydalanish qoidalari
	Elektr xavfsizligi va past tokli tarmoqlarda ishlash talablari
	Mehnat harakatlari:
	1. Tarmoq talablarini o'rganish va konfiguratsiyani loyihalash
	2. IP-manzillash va VLANlarni sozlash
3. Tarmoq ishlashini sinash va xatoliklarni bartaraf etish	
4. Yakuniy konfiguratsiyani saqlash va hujjatlashtirish	
Ko'nikmalar:	
IP-manzil va VLANlarni loyihalash va sozlash	

	A1.03.5– Tarmoq konfiguratsiyasi (VLAN, IP-manzillash va boshqalar)ni talablar asosida sozlab, barqaror ishlashini ta'minlash	Tarmoq qurilmalarini konfiguratsiya qilish va tekshirish
		Tarmoq ishlashini monitoring qilish va nosozliklarni tuzatish
		Konfiguratsiyani saqlash va hujjatlashtirish
		Bilimlar:
		Tarmoq nazariyasi
		IP-manzillash va marshrutlash prinsiplari
		Tarmoq qurilmalari xususiyatlari va ularning ishlash tamoyillari
		Asosiy tarmoq xizmatlari va ularning vazifalari
		Tarmoq xavfsizligi asoslari – autentifikatsiya, ruxsat berish va kirish nazorati
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2.Zarur hollarda mas'ul shaxs yoki yuqori darajadagi mutaxassis bilan maslahatlashgan holda qaror qabul qilish		
3.O'rnatilgan uskunalar, kabel ulanishlari va konfiguratsiya o'zgarishlarini to'g'ri hujjatlashtirish va saqlashga mas'ul		
A2.5- Kompyuter tizimlari va server infratuzilmasiga texnik xizmat ko'rsatish	A2.01.5 – Ish stansiyalari, periferik qurilmalar va serverlarning dasturiy-apparat ish faoliyatini tekshirish va sozlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ish stansiyalari va serverlarning jismoniy holatini tekshirish (korpus, kabel, periferik qurilmalar)
		2. Kompyuter va server qurilmalarining apparat ish faoliyatini diagnostika qilish
		3. Operatsion tizimlar va dasturiy ta'minot ish faoliyatini tekshirish va sozlash
		4. Periferik qurilmalar (printer, skaner, UPS va boshqalar) ishini tekshirish va sozlash
		5. Aniqlangan xatoliklarni bartaraf etish va qurilmalarning normal ishlashini ta'minlash
		6. Tekshirish va sozlash ishlari bo'yicha qaydlar kiritish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Kompyuter va server apparatlarini tekshirish va sozlash
		Operatsion tizim va dasturiy ta'minotni yangilash va konfiguratsiya qilish
		Periferik qurilmalarni ishga tushirish va sozlash
		Nosozliklarni aniqlash va tezkor bartaraf etish
		Bajarilgan ishlari bo'yicha hujjatlarni to'g'ri yuritish
		Bilimlar:
		Kompyuter apparat tizimi, periferik qurilmalar tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Server infratuzilmasi – server turlari, konfiguratsiya va ish rejimlari
Operatsion tizimlar va asosiy dasturiy ta'minot – o'rnatish, sozlash va diagnostika prinsiplari		
Periferik qurilmalar ishlash prinsiplari		

		Diagnostika va texnik xizmat ko'rsatish standartlari – muammolarni aniqlash va bartaraf etish qoidalari
A2.02.5 – Operatsion tizimlar, drayverlar va server xizmatlarini o'rnatish, yangilash va ishlashini nazorat qilish		Mehnat harakatlari:
		1. Operatsion tizimlarni va kerakli drayverlarni o'rnatish yoki yangilash
		2. Server xizmatlarini ishga tushirish va sozlash
		3. O'rnatilgan tizim va xizmatlarning ishlashini nazorat qilish, ish faoliyatini monitoring qilish
		4. Tizim va xizmatlarda yuzaga kelgan xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish
		5. Yangilanishlar va konfiguratsiya o'zgarishlarini amalga oshirishdan oldin zaxira nusxalarini olish
		6. Bajarilgan ishlar bo'yicha hujjatlarni yuritish va sozlamalarni saqlash
		Ko'nikmalar:
		Operatsion tizim va drayverlarni o'rnatish va yangilash
		Server xizmatlarini sozlash, ishga tushirish va nazorat qilish
		Tizim va xizmatlarda yuzaga kelgan nosozliklarni tezkor aniqlash va bartaraf etish
		Zaxira nusxalarini yaratish va tiklashni amalga oshirish
		Konfiguratsiya va o'zgarishlar bo'yicha hujjatlarni to'g'ri yuritish
		Bilimlar:
		Operatsion tizimlar nazariyasi va amaliyoti va ularning konfiguratsiya imkoniyatlari
		Drayverlar va apparat interfeyslari – o'rnatish, yangilash va sozlash prinsiplari
	Server xizmatlari – file, print, DNS, DHCP va boshqa xizmatlarning ishlash tamoyillari	
	Zaxira nusxa olish va tiklash asoslari	
	Tizim va xizmatlar monitoringi	
A2.03.5- Kompyuter tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish		Mehnat harakatlari:
		1. Nosozlik yuzaga kelgan qurilmalarni aniqlash va diagnostika qilish
		2. Kompyuter tizimi va server apparatining ishlashini tekshirish
		3. Periferik qurilmalar va tarmoq ulanishlarini tekshirish
		4. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish
		5. Tizimni ishga tushirish va normal ishlashini tasdiqlash
		6. Bajarilgan ishlar bo'yicha qaydlar kiritish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Hardware nosozliklarini aniqlash va diagnostika qilish
		Kompyuter va server tizimini ta'mirlash yoki sozlash
		Periferik qurilmalar va tarmoq ulanishlarini tuzatish
		Tizimni ishga tushirish va ish faoliyatini nazorat qilish
	Bajarilgan ishlarni hujjatlashtirish va qayd yuritish	

		Bilimlar:
		Kompyuter va server apparatining tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Periferik qurilmalar ishlash tamoyillari va interfeyslari
		Nosozliklarni diagnostika qilish va texnik xizmat ko'rsatish standartlari
		Tizim va qurilmalarni ishga tushirish va sozlash asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Kompyuter tizimlari va server infratuzilmasining to'g'ri va barqaror ishlashini ta'minlashga mas'ul
	2. Nosozliklar, xatoliklar va tizim muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun javobgar	
	3. Vazifalarni belgilangan standartlar asosida mustaqil bajarish va zarur hollarda maslahatlashish	
A3.5- Tarmoq xavfsizligi va axborot muhofazasini ta'minlash	A3.01.5- Tarmoq kirish huquqlarini boshqarish va ruxsat darajalarini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Foydalanuvchilar va guruhlar hisoblarini yaratish, o'zgartirish va o'chirish
		2. Tarmoq resurslariga kirish huquqlarini belgilash va ruxsat darajalarini taqsimlash
		3. Ruxsatlar va kirish huquqlarining amaliy mosligini tekshirish
		4. Noqonuniy kirish urinishlari yoki xatoliklarni aniqlash va tegishli choralar ko'rish
		5. Kirish huquqlari va ruxsat darajalari bo'yicha o'zgarishlarni hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Foydalanuvchi va guruh hisoblarini yaratish, o'zgartirish va boshqarish
		Tarmoq resurslariga kirish ruxsatlarini belgilash va tekshirish
		Noqonuniy kirish urinishlarini aniqlash va bartaraf etish
	Kirish huquqlari va ruxsat darajalari bo'yicha hujjatlarni to'g'ri yuritish	
	Bilimlar:	
	Tarmoq xavfsizligi nazariyasi	
	Foydalanuvchi va guruh hisoblarini boshqarish – Active Directori yoki boshqa tizimlarda hisoblar va ruxsatlar	
	Ruxsatlar va kirish huquqlarini belgilash standartlari	
	Tarmoq xavfsizligi monitoringi va audit prinsiplari	
	Mehnat harakatlari:	
1. Antivirus dasturlari va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish va sozlash		
2. Xavfsizlik tizimlari uchun yangilanishlarni yuklab olish va o'rnatish		
3. Tizimlar va tarmoqlar bo'yicha zararli dasturlar va tahdidlarni monitoring qilish		

	A3.02.5- Antivirus va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish, yangilash va monitoring qilish	4. Aniqlangan tahdidlar yoki virus faoliyati yuzaga kelganda tezkor choralar ko'rish
		5. Xavfsizlik tizimi holati va yangilanishlar bo'yicha qaydlar yuritish va hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Antivirus va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish va konfiguratsiya qilish
		Xavfsizlik yangilanishlarini kuzatish va o'rnatish
		Tahdidlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralarni qo'llash
		Monitoring natijalarini tahlil qilish va hujjatlarni yuritish
		Bilimlar:
		Antivirus va xavfsizlik tizimlari nazariyasi
		Tahdidlarni aniqlash va profilaktika metodlari
		Yangilanishlarni boshqarish va tizimlarni himoyalash asoslari
		Xavfsizlik monitoringini tahlil qilish prinsiplari
	A3.03.5- Tarmoqdagi xavfsizlik xatoliklari, kirish urinishlari va tahdidlarni aniqlab, choralar ko'rish	Mehnat harakatlari:
		1. Tarmoq faoliyatini monitoring qilish va xavfsizlik xatoliklarini aniqlash
		2. Noqonuniy kirish urinishlari, zararli trafik va tahdidlarni aniqlash
		3. Aniqlangan xatoliklar va tahdidlarga qarshi tezkor choralar ko'rish (bloklash, xabar berish, konfiguratsiyani tuzatish)
		4. Tahdidlar va xatoliklar bo'yicha tahlil qilish va xulosa chiqarish
		5. Bajarilgan choralar va kuzatuv natijalarini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Tarmoq faoliyatini monitoring qilish va xatoliklarni aniqlash
Noqonuniy kirish urinishlari va zararli trafikni aniqlash		
Aniqlangan xatolik va tahdidlarga qarshi amaliy choralarni qo'llash		
Xavfsizlik hodisalari bo'yicha tahlil qilish va hujjatlarni yuritish		
Bilimlar:		
Tarmoq xavfsizligi nazariyasi – xatoliklar, tahdidlar, kirish urinishlari va ularning turlari		
Tarmoq monitoringini tahlil qilish prinsiplari		
Xavfsizlik choralarni amalga oshirish asoslari		
Tahdidlarni aniqlash va ularni oldini olish usullari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tarmoq xavfsizligi va axborot muhofazasini ta'minlash uchun javobgar	

		2.Xavfsizlik xatoliklari, kirish urinishlari va tahdidlarni aniqlash va bartaraf etishga mas'ul
<p>Texnik va/yoki texnologik talab:</p>		<ol style="list-style-type: none"> 1. Kompyuter va server apparat vositalari (ish stansiyalari, periferik qurilmalar, server shassilari, RAID kontrollerlar) 2. Operatsion tizimlar (Windows, Linux, Server OS'lar) 3. Drayver va xizmatlarni boshqarish platformalari, virtualizatsiya texnologiyalari (VMware, Hyper-V, Proxmox) 4. Mahalliy va korporativ tarmoqlar infratuzilmasi (switch, router, access point), tarmoq protokollari va boshqaruv vositalari (TCP/IP, VLAN, DHCP, DNS) 5. Tizim monitoring vositalari (Zabbix, PRTG, Grafana), Ma'lumotlarni zaxiralash va tiklash texnologiyasi (backup serverlar, NAS, oblak xijmatlari) 6. Xavfsizlik tizimlari (Firewall, NGFW, IDS/IPS, UTM), 7. Endpoint himoya vositalari (antivirus, EDR), kirishni boshqarish va autentifikatsiya texnologiyalari (ACL, MFA, Active Directory) 8. SIEM tizimlari va log tahlil platformalari, xatarlarni aniqlash va bartaraf etish vositalari, tarmoq konfiguratsiyasi va diagnostika instrumentlari (Wireshark, Nmap)

Kasbning nomi	Dasturiy ta'minotni sinash bo'yicha mutaxassis
Mashg'ulot nomining kodi	25190
TMR bo'yicha malaka darajasi	6
Malakani baholash bo'yicha talablar	Malakani baholash markazlarida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	6-daraja uchun ish staji talab etiladi Kamida 6 oydan boshlab
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Erkak va ayol; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavr
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Dasturlovchi
	6	Kompyuter sistemasini ishlab
	6	Muhandis dasturlovchi
	6	Dasturiy ta'minot tekshiruvchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6- Dasturiy mahsulotlarni kompleks sinash va baholash	B1.01.6 – Dasturiy ta'minot talablariga asoslangan holda test ssenariylari tuzish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dasturiy ta'minot talablarini tahlil qilish
		2. Testlash strategiyasi, rejasi va ssenariylarini ishlab chiqish
		3. Test keyslar va chek-listlar tayyorlash
		4. Sinov muhitini tayyorlash, konfiguratsiya qilish
		5. Qo'lda va avtomatlashtirilgan test platformalarini tanlash
		Ko'nikmalar:
		Talablar (requirements) tahlilini aniqlash
		Test ssenariy va test- keys ishlab chiqish
		Chek-listlar tuzish va ustuvor testlar tanlash
		Sinov muhitini yaratish va boshqarish
		Bilimlar:
	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqib hayotiy sikli va Dasturiy ta'minotni test qilish hayotiy sikli	
	Testlash turlari: Functional, Regression, Integration, UAT	
	Test dizayni usullari	
	Test muhiti va konfiguratsiya asoslari	
	QA (Sifat nazorati) qoidalari, standartlari, terminologiyasi	
	B1.02.6- Ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotning barcha funksional imkoniyatlarini tekshirish	Mehnat harakatlari:
